e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/6p777056

QADIMGI HIND MAROSIMLARI TIZIMIDA "RIGVEDA" MATNLARINING DINIY-AMALIY VAZIFALARI

Xolmirzayeva Moxichehra Dilshodbek qizi
Fan va texnologiyalar universiteti, stajyor-o'qituvchi.
e-mail: holmirzayevamohicehra1212@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0007-1000-408X

Annotatsiya.
Mazkur maqolada insoniyat tarixidagi eng qadimgi yozma yodgorliklardan biri bo'lgan "Rigveda" matnlarining qadimgi hind marosimlari tizimidagi o'rni va diniy-amaliy vazifalari tadqiq etiladi. Shuningdek, maqolada Veda madhiyalari shunchaki badiiy-mifologik asarlar emas, balki qadimgi hindlarning diniy-marosimiy amaliyotining sakral poydevori ekanligi ochib beriladi. Matnlarning og'zaki an'ana va maxsus yodlash usullari orqali asrab kelingani hamda Veda madhiyalarini kuylash an'anasining YUNESKO nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgani yoritiladi.
Kalit so'zlar: Rigveda, Veda madhiyalari, qadimgi hind marosimlari, diniy-amaliy vazifalar, sakral poydevor, og'zaki an'ana, Agnisayana.

РЕЛИГИОЗНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ТЕКСТОВ «РИГВЕДЫ» В СИСТЕМЕ ДРЕВНЕИНДИЙСКИХ РИТУАЛОВ

Холмирзаева Мохичехра Дилшодбек кизи
Университет науки и технологий, преподаватель-стажёр.

Аннотация.
В статье исследуются место и религиозно-практические функции текстов «Ригведы», одного из древнейших памятников письменной традиции человечества, в системе древнеиндийских ритуалов. Раскрывается положение о том, что ведийские гимны представляют собой не просто художественно-мифологические произведения, а сакральную основу религиозно-ритуальной практики древних индийцев. Рассматриваются сохранение текстов посредством устной традиции и специальных методов заучивания, а также включение традиции ведийского пения в список нематериального культурного наследия ЮНЕСКО.
Ключевые слова: Ригведа, ведийские гимны, древнеиндийские ритуалы, религиозно-практические функции, сакральная основа, устная традиция, Агничаяна.

THE RELIGIOUS AND PRACTICAL FUNCTIONS OF RIGVEDIC TEXTS IN THE SYSTEM OF ANCIENT INDIAN RITUALS

Xolmirzayeva Moxichehra Dilshodbek qizi
University of Science and Technology, Trainee Lecturer.

Abstract.
This article examines the role and religious-practical functions of the Rigveda, one of the oldest monuments of humanity's textual tradition, within the system of ancient Indian rituals. The study demonstrates that Vedic hymns were not merely literary and mythological compositions but constituted the sacred foundation of religious and ritual practices in ancient India. Particular attention is given to the preservation of these texts through oral transmission and specialized memorization techniques, as well as the inclusion of the tradition of Vedic chanting in UNESCO's Intangible Cultural Heritage list.
Keywords: Rigveda, Vedic hymns, ancient Indian rituals, religious and practical functions, sacred foundation, oral tradition, Agnicayana.

Kirish. Qadimgi jamiyatlarning ma'naviy madaniyatini, xususan, hind-oriy xalqlarining dastlabki diniy-mifologik tafakkurini o'rganishda insoniyat tarixidagi eng qadimgi yozma yodgorliklardan biri bo'lgan "Rigveda" matnlari asosiy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Uzoq o'tmishdan boshlab Sharq va G'arb tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lib kelgan bu qadimiy madhiyalar tizimi shunchaki badiiy-mifologik asar emas, balki qadimgi hindlarning diniy-marosimiy amaliyotining sakral poydevori bo'lib xizmat qilgan. Bu kabi qadimiy e'tiqodlar va dinlar mushtarakligining tarixiy ildizlarini tadqiq etishda qariyb ming yil muqaddam Abu Rayhon Beruniy o'zining "Hindiston" asari orqali hind diniy-falsafiy hamda madaniy-ma'rifiy tafakkurini ilmiy asosda yoritishda beqiyos rol o'ynaganini alohida ta'kidlash joiz [4].

"Rigveda" insoniyat madaniy merosining eng qadimgi yozma yodgorliklaridan biri bo'lib, uning shakllanishi odatda miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalari bilan bog'lanadi. Matn o'nta mandalaga birlashtirilgan 1028 ta madhiyadan iborat. Bu yodgorlikning ahamiyati faqat uning qadimiyligida emas. "Rigveda" yozma shaklda emas, balki og'zaki an'ana

orqali, ya'ni so'z, tovush va ohangni qat'iy nazorat qiluvchi maxsus yodlash usullari (padapatha, kramapatha, jatapaṭha, ghanapatha) vositasida ming yillar davomida saqlangan [15]. Shu sababli matn bugungi kunda ham tirik ritual amaliyotning bir qismi bo'lib qolmoqda. YUNESKO 2008-yilda Veda taronalari an'anasini insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritdi, 2007-yilda esa "Rigveda" qo'lyozmalari "Dunyo xotirasi" reyestriga qo'shildi [20]. Bu xalqaro hamjamiyat matnni nafaqat tarixiy hujjat, balki yashovchi madaniy hodisa sifatida tan olganini ko'rsatadi.

"Rigveda" madhiyalari qadimgi hind jamiyatida marosimlardan tashqari mustaqil adabiy yoki falsafiy matn sifatida emas, aynan marosim doirasida amal qilgan. Madhiyalar ruhoniy tomonidan aniq vaziyatda, aniq ilohga qaratib, muayyan natijaga erishish maqsadida aytilgan. Shu bois ularning ritual-pragmatik vazifalarini, ya'ni matn marosimda nimani bajarishini aniqlash Veda dinining ichki mantiqini tushunishning zaruriy sharti hisoblanadi. XX asr oxirida bu masala yangi dalillar bilan boyidi. 1975-yilda Keraladagi (Janubiy Hindiston) nambudiri brahmanlari o'tkazgan o'n ikki kunlik Agnicayana marosimi F. Staal rahbarligidagi guruh tomonidan to'liq hujjatlashtirildi [19; 355–358-b.]. Natijada "Rigveda" va unga yondosh mantralar tirik marosimda qanday ishlatilishini kuzatish imkoni paydo bo'ldi. Shu bilan birga, matn va amal munosabati bo'yicha ilmiy munozara yangi bosqichga ko'tarildi.

Ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyati bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, "Rigveda" hind-oriy madaniy birligi davriga oid til va diniy tasavvurlarni aks ettiradi. Uning marosim tushunchalari, jumladan, soma qurbonligi, olov kultidagi amallar va "ṛta" (kosmik tartib) tushunchasi "Avesta"dagi haoma, atar va "asha" tushunchalari bilan qiyosiy o'rganiladi. Shu sababli madhiyalarning marosimdagi vazifalarini aniqlash qadimgi Markaziy Osiyo va Eron dunyosidagi diniy jarayonlarni qiyosiy-tarixiy yoritish uchun yordamchi manbalardan biri hisoblanadi. Ikkinchidan, Veda marosimlarini tahlil qilish marosim va til munosabati, ya'ni so'zning faqat axborot uzatmasdan, amal sifatida ham ishlashi haqidagi umumnazariy savolga javob berishga yordam beradi. Uchinchidan, bunday tahlil dinshunoslik, tarix va filologiya fanlari kesishgan nuqtada yangi tasnif va terminologik birlikni ishlab chiqish imkonini beradi. Markaziy Osiyo hind madaniyati bilan qadim zamonlardan aloqada bo'lgan, bu aloqalar Kushon davri buddaviy yodgorliklarida (Termiz hududidagi Qoratepa, Fayoztepa) yaqqol ko'rinadi [7; 385–391-b.]. O'rta asrlarda esa vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy "Hindiston" asarida hindlarning diniy tasavvurlari, Veda matnlari va ularning og'zaki uzatilishi haqida batafsil ma'lumot qoldirgan.

Bugungi kunda hinduizm tarafdorlari soni taxminan 1,2 milliard kishini, ya'ni dunyo aholisining qariyb 15 foizini tashkil etadi. Ularning marosimlari va hayoti Veda an'analariga tayanadi [13]. Boshqa dinlarning marosim tizimi va ularning ichki mantiqini ilmiy asosda bilish dinlararo muloqot va o'zaro hurmat madaniyatini shakllantirishning zaruriy poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi 2018-yilda "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasini qabul qilgani bu yo'nalishning davlat siyosati darajasida ham dolzarbligini ko'rsatadi. Boshqa diniy an'analarni taxminlar asosida emas, balki manbalar asosida o'rganish millatlararo ziddiyatlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, og'zaki an'anani ming yillar davomida saqlagan marosim mexanizmlarini tahlil qilish nomoddiy madaniy merosni asrash masalasi uchun ham amaliy ahamiyatga ega. Shu asosda ushbu maqolada "Rigveda" matnlarining qadimgi hind marosimlari tizimidagi ritual-pragmatik vazifalari ilmiy tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

"Rigveda"ning ilmiy o'rganilishi XIX asrdan boshlab Yevropa sharqshunosligida shakllandi. Bu jarayonning poydevori M. Myuller tomonidan Sayana sharhi bilan birga nashr etilgan matn bo'ldi [21; 56-b.]. Matn va marosim munosabati masalasi birinchi marta A. Bergen tadqiqotlarida tizimli ravishda qo'yildi: u madhiyalarni qurbonlik amali va uning ramziy tizimi doirasida o'qish zarurligini asoslab berdi [3; 125-b.]. Shu yo'nalishni G. Oldenberg davom ettirib, vedik dinni marosim va mifologiyaning o'zaro bog'liqligi asosida tasvirladi [23; 9-b.]. A. Hillebrandt esa Srauta va Grhya an'analari materiallariga tayanib, vedik marosimlar tavsifini tizimlashtirdi [12; 10-b.]. A. B. Kit "Rigveda" dinini Upanishadlar bilan birga ko'rib, vedik tasavvurlarning rivojlanishini yoritdi [17; 8–9-b.]. XX asrda K. Geldnerning to'liq nemischa tarjimasi va sharhlari matnning marosimiy kontekstini aniqlashga imkon berdi [8; 23-b.]. L. Renuning "Vedik marosim lug'ati" asari esa marosim terminologiyasining ma'nolarini tizimli ravishda ko'rsatdi [25; 16-b.]. Y. Gonda vedik she'riyatni "ko'ruvchi shoir" (ṛṣi) va uning ritual vazifasi nuqtayi nazaridan tahlil qildi [9; 38-b.], keyinroq "Veda adabiyoti" asarida Saṃhita va Brahmana matnlarining marosimdagi o'rnini umumlashtirdi [10; 187-b.]. J. Xesterman vedik marosimni jamiyat, shohlik institutlari va an'anadagi ziddiyatlar bilan bog'lab, ritual tahlilning ijtimoiy-tarixiy yo'nalishini ishlab chiqdi [11; 135-b.].

XX asrning ikkinchi yarmida munozara mantraning ma'nosi masalasiga ko'chdi. F. Staal "Marosim ma'nosizligi" tezisida marosim amali tilning semantik mazmunidan mustaqil, qoidalarga asoslangan tizim, mantralar esa ko'pincha ma'nosiz tovush birliklari ekanini ilgari surdi [26; 2–22-b.]. Keyin 1975-yilda Keraladagi Agnicayana marosimini to'liq hujjatlashtirib, o'z fikrini dalillar bilan asosladi [27; 4-b.]. Unga qarshi L. Pattonning tadqiqotida mantra ritual amalning ma'no hosil qiluvchi tarkibiy qismi sifatida ko'rsatildi [24; 58-b.]. G. Tompson vedik nutq shakllarini, xususan, brahmodya an'anasini ritual vaziyat bilan bog'lab o'rgandi [30; 13–37-b.]. M. Vitselning tadqiqotlari "Rigveda" matnining shakllanishi, kodifikatsiyasi va og'zaki uzatilishini tarixiy-filologik jihatdan aniqlashtirdi [31; 68–101-b.]. S. Jemison va J. Brereton tomonidan tayyorlangan zamonaviy tarjima mandalalar va madhiyalar bo'yicha muallif, ritual vaziyat va tuzilish haqidagi sharhlarni o'z ichiga oladi [14; 13-b.].

Rus sharqshunosligida "Rigveda" matnlarini strukturaviy-semiotik nuqtayi nazardan o'rganishning muhim namunasi B. L. Ogibeninning monografiyasidir. Muallif mifologik matnni til tizimi ustiga qurilgan ikkinchi darajali belgi tizimi sifatida ko'rib, vedik mifologiya unsurlarini, ya'ni ilohlarni ularga xos belgilar (atributlar) to'plami orqali tavsiflaydi [33; 5–9-b.]. Tadqiqotda "Rigveda" mifologik matnlarining sintaktik tuzilishida parallelizm ustun ekani, ya'ni turli ilohlarga bir xil belgilar nisbat berilishi ko'rsatiladi [33; 9-b.]. Asarning ritual masalasiga bag'ishlangan bo'limida qurbonlik ustuni (vanaspati, yūpa) kosmik ramz sifatida talqin qilinadi: unga qurbonlik bog'langan va ustunni

o‘rnatishning o‘zi olamning yaratilishini takrorlovchi marosimga aylangan [33; 16–17-b.]. Shuningdek, ṛta, tapas, yajña (qurbonlik) va podsho (rajan) tushunchalarining semantik tavsifi beriladi [33; 47–67-b.].

Hind dinlariga oid dastlabki xabarlar arab manbalarida VIII asrning ikkinchi yarmi va IX asr boshida hukmronlik qilgan Yahyo va Xolid davrlariga tegishli deb qayd etiladi. Hind tarixchisi Muhammad Shuayb Xonning ko‘rsatishicha, musulmonlar va hindlar o‘rtasidagi yaqin aloqalar 712-yilda Sind va Panjob zabt etilgach rivojlandi, O‘rta Osiyoda esa musulmonlar Samarqandda (711-yilda zabt etilgan) buddaviylar bilan to‘qnash kelgan [18; 199-b.]. Muallifning yozishicha, Abbosiylar vaziri Yahyo ibn Xolid (786–803) hind dinlari haqida ma’lumot to‘plash uchun Hindistonga elchi yuborgan, elchi hisobotining qisqacha mazmuni esa Ibn an-Nadimning “Kitob al-Fihrist” asarida “Madohib al-Hind” (“Hindiston dinlari”) nomli bobda saqlangan [18; 199-b.]. Muhammad Shuayb Xon Barmakiylar xonadonini hind kelib chiqishiga ega, ajdodlari buddaviy bo‘lgan deb hisoblaydi [18; 199-b.].

Abu Rayhon Beruniy “Hindiston” asarida hindlarning diniy tasavvurlari, Veda kitoblari va ularning og‘zaki yodlab uzatilishi haqida ma’lumot qoldirgan [4; 200-b.].

Bu tarixiy muhit Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asari yozilishiga zamin hozirladi. Beruniy asarning yozilish sababini izohlab, Abu Sahl Tiflisiy uni hindlar haqida o‘zi bilganlarini ularning ta’limoti bo‘yicha bahslashmoqchi bo‘lganlarga yordam va ushbu mavzuga murojaat qiluvchilarga xazina bo‘ladigan kitob sifatida yozishga undaganini, o‘zi esa “na muxolifga asossiz hamla qilganini, na unga o‘z aytgan so‘zlarini eslatib qo‘yishni aybli deb bilganini” ta’kidlaydi [4; 65-b.]. Bu qaydda Beruniy tanlagan metodning asosi ko‘rinadi: boshqa dinni uning tarafdorlari ta’limoti va manbalariga tayanib, xolis bayon qilish. Shu bois Beruniyning xizmatlari ilmiy qiymati jihatidan alohida o‘rin tutadi, “Hindiston” esa hind diniy an’anasi, jumladan, Veda kitoblari va ularning og‘zaki yodlab uzatilishi haqidagi ma’lumotlar bilan bu sohada o‘zbek ilmiy merosining poydevori bo‘lib qolmoqda [4; 86-b.].

Zamonaviy o‘zbek tilidagi adabiyotda hind dinlari va madaniyati masalalari asosan N. Nizomiddinovning tadqiqotlarida yoritilgan. Uning Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo xalqlarining qadimgi tarixi, diniy e’tiqodi va madaniyatiga bag‘ishlangan monografiyasida hind diniy an’anasi, jumladan, “Rigveda” umumiy tarixiy kontekstda tavsiflanadi [22; 98-b.]. Muallif “Rigveda”dagi madhiyalarni izohlash masalasining murakkabligini quyidagicha ko‘rsatadi: “lingvistik jihatdan oddiy, lekin konseptual nuqtai nazardan nihoyatda provokatsion xarakterdagi tarononalarning yuzlab kommentariyalari Hindiston teologlari va G‘arb olimlari o‘rtasida juda ko‘p bahslarga sabab bo‘lgan. Chunki ular aksariyat hollarda faqat ishni mushkullashtiribgina qolmay, javobsiz savollar hamda talay paradoksal masalalarni keltirib chiqarishi bilan ham xarakterli” [22; 71–72-b.]. Bu fikr madhiyalarni faqat matn sifatida emas, balki ularning ritual vazifasi va talqin an’anasi bilan birga o‘rganish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini tarixiy-qiyosiy, filologik-matniy, tizimli-funksional va performativ yondashuvlar tashkil etadi. Tarixiy-qiyosiy yondashuv “Rigveda” madhiyalarini ularning shakllanish davri va keyingi vedik adabiyot (Brahmana, Śrautasūtra) bilan solishtirib o‘rganishga imkon beradi. Filologik-matniy tahlil madhiyalarning asl sanskritcha matni, ularning ritual terminologiyasi va tarjimalaridagi farqlarni aniqlashda qo‘llaniladi, bunda asosan [8; 14; 34] tarjimalariga tayaniladi. Tizimli-funksional tahlil madhiyalarni marosimning tarkibiy qismi sifatida, ya’ni ularning ruhoniylar (hotṛ, adhvaryu, udgatṛ) o‘rtasidagi vazifa taqsimoti va marosim bosqichlari bilan bog‘liqligi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqadi [10; 16]. Brahmana va Śrautasūtra matnlarida mantrani marosimning muayyan lahzasiga bog‘lovchi qoida (viniyoga) madhiyaning ritual vazifasini aniqlashning asosiy mezoni sifatida olinadi [25; 78-b.].

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari “Rigveda” madhiyalari qadimgi hind marosimlari tizimida mustaqil adabiy matn emas, balki marosimning tarkibiy qismi sifatida amal qilganini ko‘rsatadi. Marosim doirasida matnlar vazifalariga ko‘ra taqsimlangan: “Rigveda” baytlarini asosan hotṛ ruhoniysi o‘qigan, Yajurveda formulalari adhvaryu zimmasida bo‘lgan, Samaveda kuylarini esa udgatṛ ijro etgan [10; 13-b.]. Har bir madhiyaning marosimning aniq qismida qo‘llanishi (viniyoga) Brahmana va Śrautasūtra matnlarida belgilangan [25; 87-b.]. Madhiyalarning o‘z matnini va ularning ritual qo‘llanishini solishtirish asosida “Rigveda”ning yettita asosiy diniy-amaliy vazifasini ajratish mumkin:

№	Vazifa	«Rigveda»dagi misollar (mandala.madhiya)	Marosimdagi o‘rni
1	Ilohlarni chaqirish va marosimga joylashtirish	Agni madhiyasi 1.1; o‘nta Apri madhiyasi (1.13, 1.142, 1.188, 2.3, 3.4, 5.5, 7.2, 9.5, 10.70, 10.110)	Qurbonlik boshida va dastlabki qurbonliklarda ilohlarni tartib bilan chaqirish
2	Ulug‘lash (stuti) va iltijo	Indra madhiyalari, masalan 1.32	Iloh sifatlarini sanash, yordam va in’om so‘rash
3	Soma tayyorlash va qurbonligiga hamroh bo‘lish	To‘qqizinchi mandala (Soma Pavamana)	Somani siqish va suzish bosqichlari
4	Qurbonlik ashyosini kosmik ramz sifatida belgilash	3.8 (qurbonlik ustuniga), 1.162–163 (ot qurbonligi)	Ustunni o‘rnatish va qurbonlikni unga bog‘lash
5	Hayot sikli marosimlarini qo‘llab-quvvatlash	10.85 (to‘y), 10.14–18 (dafn)	Nikoh va dafn amallari
6	Homiy va ruhoniy munosabatini mustahkamlash (danastuti)	1.126	Homiy in’omlarini ulug‘lash
7	Kosmogonik va spekulyativ	10.90, 10.129, 1.164 (topishmoq-bahs,	Ritual vaziyatdagi nutq bahsi, olam

№	Vazifa	«Rigveda»dagi misollar (mandala.madhiya)	Marosimdagi o‘rni
	bilimni uzatish	brahmodya)	yaratilishi tasviri

Jadvaldagi birinchi vazifa ilohlarni chaqirishdir. «Rigveda» to‘plamining o‘zi Agni madhiyasi bilan boshlanadi, unda Agni qurbonlik ruhoniysi va qurbonlikni ilohlarga yetkazuvchi sifatida ulug‘lanadi [14; 9-b.]. Ilohlarni tartib bilan chaqiradigan Apri madhiyalari qurbonlikning dastlabki amallarida (prayaja) qo‘llangan [25; 45-b.]. To‘qqizinchi mandalaning to‘liq Soma Pavamana, ya’ni siqilib suzilayotgan soma ilohiga bag‘ishlangani somaning marosim hayotidagi o‘rnini ko‘rsatadi [14; 23-b.]. To‘y va dafn madhiyalarining mavjudligi esa matnlar faqat katta qurbonlik marosimlari bilan chegaralanmaganini bildiradi [20].

To‘rtinchi vazifa B. L. Ogibenin tahlilida yaqqol ko‘rinadi. U qurbonlik ustunini (vanaspati, yūpa) qurbonlik ritualining kosmik ramzi deb talqin qiladi: qurbonlik hayvoni unga bog‘langan, keyinchalik ustunni o‘rnatishning o‘zi olamning yaratilishini takrorlovchi marosimga aylangan [33; 16–17-b.]. Ustunga alohida madhiya (3.8) bag‘ishlangani ham uning ritual obyekt sifatidagi ahamiyatini tasdiqlaydi [33; 17-b.]. Shu bilan birga, Ogibenin «Rigveda» mifologik matnlarida parallelizm ustunligini, ya’ni turli ilohlarga bir xil belgilar nisbat berilishini aniqlaydi [33; 9-b.]. Bu qonuniyatni madhiyalarning marosimdagi funksional yaqinligi haqidagi farazga asos deb qarash mumkin, ammo har bir holatni viniyoga ma’lumotlari bilan alohida tekshirish zarur.

Mantra ma’nosi va marosim o‘rtasidagi munosabat masalasida tadqiqot natijalari ikki qarashni birlashtiradi. F. Staal marosim amalini tilning semantik mazmunidan mustaqil, qoidalarga bo‘ysunuvchi tizim deb hisoblaydi [26; 2–22-b.], uning 1975-yilgi Agnicayana marosimini hujjatlashtirish ishlari bu tezisni dala materiallari bilan asoslaydi [27; 4-b.]. L. Patton esa mantra va ritual amalni ma’no hosil qiluvchi yaxlit tizim deb ko‘rsatadi [24; 165-b.]. Madhiyalarning yuqorida ajratilgan vazifalari ikkinchi qarashni qo‘llab-quvvatlaydi: chaqirish, ulug‘lash, qurbonlikni taqdim etish kabi amallar so‘zning ma’nosiz tovush emas, balki ma’noli harakat ekanini bildiradi. J. Ostinning performativ aytim nazariyasiga ko‘ra, ba’zi gaplar voqelikni tavsiflamaydi, balki harakatni bajaradi [2; 25–39-b.]. S. Tambaya bu g‘oyani ritualga tatbiq etib, marosimni so‘z va amal birligi sifatida ko‘rsatadi [29; 113–169-b.]. Staalning shakliy qat’iylik haqidagi kuzatuvi ham o‘rinli: ritual amal ma’nodan qat’i nazar, qat’iy shaklda saqlanishi mumkin. Shu sababli madhiyaning vazifasini uning ma’nosi bilan emas, balki marosimdagi qo‘llanish vaziyati bilan aniqlash metodologik jihatdan to‘g‘ri. Bu masalada G. Tompsonning brahmodya haqidagi tadqiqoti ritual nutqning kontekstdan ajralmasligini tasdiqlaydi [30; 13–37-b.].

Marosim tizimining tarixiy asosi M. Vitsel tadqiqotlarida ko‘rsatilgan: madhiyalar ilk vedik davrda shakllanib, ming yillar davomida og‘zaki an’ana orqali uzatilgan [31; 68–101-b.]. Shu bois madhiyalarning ritual vazifasi ularning yozma fiksatsiyasidan oldin marosim amaliyotida qaror topgan. Bu madhiyalarni izohlashdagi murakkablikni ham tushuntiradi. N. Nizomiddinov lingvistik jihatdan oddiy, ammo konseptual jihatdan «provokatsion» taronalarga yuzlab izohlar yozilganini va ular Hindiston teologlari bilan G‘arb olimlari o‘rtasida ko‘plab bahslarga sabab bo‘lganini ta’kidlaydi [22; 71–72-b.]. Demak, madhiyalarning ma’nosini marosim kontekstidan tashqarida bir ma’noli aniqlab bo‘lmaydi.

Arab doksografik an’anasi bilan taqqoslashda M. S. Xonning ko‘rsatishicha, arab mualliflari VIII asrdan, Barmakiylar davridan boshlab hind dinlari haqida ma’lumot yig‘ib, keyinchalik ularni Ibn an-Nadim, al-Maqdisiy va ash-Shahristoniy asarlariga kiritganlar [18; 199–200-b.]. Bu asarlarda asosiy e’tibor ta’limot va e’tiqod guruhlariga qaratilgan, vedik marosimning pragmatik jihatlari esa kamroq yoritilgan. Beruniy esa asl sanskrit matnlari va shaxsiy kuzatuvlarga tayanib yozgani uchun alohida o‘rin tutadi [18; 200-b.]. Shu tariqa, hind marosim tizimini manbalarning asl matnlariga tayanib o‘rganish zarurati o‘rta asrlardayoq shakllangan.

NATIJALAR

Birinchidan, “Rigveda” madhiyalari qadimgi hind jamiyatida mustaqil adabiy matn sifatida emas, balki marosim doirasida amal qilgan. Marosimda matnlar vazifalariga ko‘ra taqsimlangan: “Rigveda” baytlarini asosan hotṛ ruhoniysi o‘qigan, Yajurveda formulalari adhvaryu zimmasida bo‘lgan, Samaveda kuylarini esa udgatṛ ijro etgan [10; 98-b.]. Har bir madhiyaning marosimning aniq lahzasida qo‘llanishi (viniyoga) Brahmana va Srautasutra matnlarida belgilangan [25; 345-b.]. Ikkinchidan, “Rigveda”ning yettita asosiy diniy-amaliy vazifasi ajratildi (1-jadval): ilohlarni chaqirish va marosimga joylashtirish, ulug‘lash va iltijo, soma tayyorlash va qurbonligiga hamroh bo‘lish, qurbonlik ashyosini kosmik ramz sifatida belgilash, hayot sikli marosimlarini qo‘llab-quvvatlash, homiy va ruhoniy munosabatini mustahkamlash (danastuti) hamda kosmogonik va spekulyativ bilimni uzatish. Uchinchidan, madhiyalarning ramziy-kosmogonik vazifasi tasdiqlandi. B. L. Ogibenin tahlili ko‘rsatadiki, qurbonlik ustuni (vanaspati, yūpa) qurbonlik ritualining kosmik ramzi bo‘lgan, ustunni o‘rnatishning o‘zi esa olamning yaratilishini takrorlovchi marosimga aylangan [33; 16–17-b.]. Shuningdek, “Rigveda” mifologik matnlarida turli ilohlarga bir xil belgilar nisbat berilishi, ya’ni parallelizm ustunligi aniqlandi [33; 9-b.].

To‘rtinchidan, mantra ma’nosi va marosim o‘rtasidagi munosabat masalasida madhiyaning vazifasini uning ma’nosi bilan emas, balki marosimdagi qo‘llanish vaziyati bilan aniqlash metodologik jihatdan to‘g‘ri ekani ko‘rsatildi. F. Staal marosim amalini tilning semantik mazmunidan mustaqil deb hisoblaydi [26; 2–22-b.], L. Patton esa mantra va amalni ma’no hosil qiluvchi yaxlit tizim deb ko‘rsatadi [24; 145-b.]. Performativ aytim nazariyasi [2; 89-b.; 29; 113–169-b.] va brahmodya tahlili [30; 13–37-b.] chaqirish, ulug‘lash va qurbonlikni taqdim etish kabi vazifalar so‘zning ma’noli harakat ekanini tasdiqlaydi.

Beshinchidan, madhiyalarning ritual vazifasi ularning yozma fiksatsiyasidan oldin, ming yillar davomida og‘zaki uzatilgan davrda qaror topgani ko‘rsatildi [31; 68–101-b.]. Shu bilan birga, madhiyalarning talqini murakkabligicha qolmoqda: ularga yozilgan yuzlab izohlar Hindiston teologlari va G‘arb olimlari o‘rtasida bahslarga sabab bo‘lgan [22; 71–72-b.]. Oltinchidan, manbashunoslik tahlili hind dinlari haqidagi ma’lumotlar arab doksografik an’anasida VIII asrdan,

Barmakiylar davridan boshlab to‘planganini ko‘rsatdi [18; 199–200-b.]. Bu an’anada asosiy e’tibor ta’limot va e’tiqod guruhlariga qaratilgan, vedik marosimning pragmatik jihatlari esa kamroq yoritilgan. Beruniy asl sanskrit matnlari va shaxsiy kuzatuvlarga tayanib yozgani bilan alohida o‘rin tutadi [18; 200-b.].

XULOSA

Tadqiqot “Rigveda” matnlarining qadimgi hind marosimlari tizimidagi diniy-amaliy vazifalarini aniqlash va tasniflashga qaratilgan edi. Natijalar madhiyalarni faqat badiiy yoki mifologik yodgorlik sifatida emas, balki marosimning tarkibiy qismi sifatida o‘rganish zarurligini tasdiqlaydi. Madhiyalar ruhoniylar o‘rtasidagi vazifa taqsimoti va viniyoga qoidasi orqali marosim bosqichlariga bog‘langan. Ajratilgan yettita vazifa madhiyalarning marosimdagi rolini keng qamrovda ko‘rsatadi. Ular ilohlarni chaqirish va ulug‘lashdan tortib, soma qurbonligiga hamroh bo‘lish, hayot sikli marosimlarini qo‘llab-quvvatlash, ritual ramzlar orqali kosmogonik amalni takrorlash va bilimni uzatishgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oladi. Mantra ma’nosi haqidagi bahsda madhiyaning vazifasini uning ma’nosi bilan emas, balki marosimdagi qo‘llanish vaziyati bilan aniqlash maqsadga muvofiq deb topildi. Tadqiqot natijalaridan “Rigveda” madhiyalarini Brahmana va Srautasutra matnlaridagi viniyoga ma’lumotlari bilan solishtirishga bag‘ishlangan tizimli tahlillarda, shuningdek, vedik va avestoviy marosim tushunchalarini qiyosiy o‘rganishda foydalanish mumkin. Ushbu ish qadimgi hind marosim tizimini manbalarga tayanib o‘rganishga, dinlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga va og‘zaki an’anani asrash tajribasini yoritishga xizmat qiladi, shuningdek, mavzuni o‘zbek tilidagi ilmiy muomalaga kiritadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aurobindo Sri. The Secret of the Veda with Selected Hymns // The Complete Works of Sri Aurobindo. – Vol. 15. – Pondicherry: Sri Aurobindo Ashram, 1998. – URL: https://www.sriaurobindoashram.org/sriaurobindo/downloadpdf.php?id=30. sriaurobindoashram.org
2. Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – URL: https://openlibrary.org/books/OL5872960M. Open Library
3. Bergaigne A. La religion védique d’après les hymnes du Rig-Veda. – 3 vols. – Paris: F. Vieweg, 1878–1883. – URL: https://prosopo.ephe.psl.eu/abel-bergaigne. Dictionnaire prosopographique de l'EPHE
4. Beruniy Abu Rayhon. Hindiston // Tanlangan asarlar. – II jild. – Toshkent: Fan, 1965.
5. Dandekar R. N. Vedic Mythological Tracts. – Delhi: Ajanta Publications, 1979. – URL: https://cse.iitk.ac.in/users/amit/books/dandekar-1979-vedic-mythological-tracts.html. cse.iitk.ac.in
6. Dayānanda Sarasvatī. Ṛgvedādibhāṣyabhūmikā. – Arsh Sahitya Prachar Trust, 2010. – URL: https://elibrary.thearyasamaj.org/book/rigvedadibhashyabhumika. eLibrary The Arya Samaj
7. Elboyev F. X., Kamolxo‘jayeva M. A. O‘zbekistonda buddaviylik dinining tarixiy ildizlari // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2025. – Vol. 5, № 3. – B. 385–391. – URL: https://oriens.uz/uz/journal/article/ozbekistonda-buddaviylik-dinining-tarixiy-ildizlari/. ORIENS
8. Geldner K. F. Der Rig-Veda: aus dem Sanskrit ins Deutsche übersetzt und mit einem laufenden Kommentar versehen. – 4 Bde. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1951–1957. – (Harvard Oriental Series; 33–36). – URL: https://catalogue.bnf.fr/ark:/12148/cb335898449. catalogue.bnf.fr
9. Gonda J. The Vision of the Vedic Poets. – The Hague: Mouton, 1963. – URL: https://rmrl.in/en/onlinecat/114153/the-vision-of-the-vedic-poets. rmrl.in
10. Gonda J. Vedic Literature (Saṃhitās and Brāhmaṇas). – Wiesbaden: Otto Harrassowitz, 1975. – URL: https://iucat.iu.edu/iub/1235137. IUCAT Bloomington
11. Heesterman J. C. The Inner Conflict of Tradition: Essays in Indian Ritual, Kingship, and Society. – Chicago: University of Chicago Press, 1985. – URL: https://press.uchicago.edu/ucp/books/book/chicago/I/bo5974489.html. press.uchicago.edu
12. Hillebrandt A. Ritual-Litteratur: Vedische Opfer und Zauber. – Strassburg: K. J. Trübner, 1897. – URL: https://gretil.sub.uni-goettingen.de/gretil_elib/Hil897_Hillebrandt_Ritual-Litteratur.pdf. gretil.sub.uni-goettingen.de
13. Pew Research Center. Hindu Population Change [Elektron resurs]. – 2025. – 9-iyun. – URL: https://www.pewresearch.org/religion/2025/06/09/hindu-population-change/ (murojaat sanasi: 06.11.2026). Pew Research Center
14. Jamison S. W., Brereton J. P. The Rigveda: The Earliest Religious Poetry of India. – 3 vols. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – URL: https://books.google.com/books?id=UF2tAAAACAAJ. books.google.com
15. Jamison S. W., Brereton J. P. The Rigveda: A Guide. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – DOI: https://doi.org/10.1093/oso/9780190633363.001.0001. academic.oup.com
16. Kane P. V. History of Dharmaśāstra: Ancient and Medieval Religious and Civil Law. – Vol. II, parts I–II. – Poona: Bhandarkar Oriental Research Institute, 1941. – URL: https://openlibrary.org/books/OL14732083M/History_of_Dharmaśastra. cambridge.org
17. Keith A. B. The Religion and Philosophy of the Veda and Upanishads. – 2 vols. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1925. – URL: https://ci.nii.ac.jp/ncid/BA23017888. ci.nii.ac.jp
18. Khan M. S. A Twelfth Century Arab Account of Indian Religions and Sects // Arabica. – 1983. – Vol. 30, № 2. – P. 199–208. – DOI: https://doi.org/10.1163/157005883X00355. SLUB Dresden
19. Knipe D. M. Stalking the Sacrifice [Review of: Staal F. Agni: The Vedic Ritual of the Fire Altar] // The Journal of Asian Studies. – 1986. – Vol. 45, № 2. – P. 355–358. – DOI: https://doi.org/10.2307/2055847. cambridge.org
20. UNESCO. Memory of the World Register: Rigvedasamhita, Rigvedasamhita-Padapatha and Rigvedasamhitabhashya [Elektron resurs]. – Ref. № 2006-58. – URL: https://media.unesco.org/sites/default/files/webform/mow001/india_rigveda.pdf (murojaat sanasi: 06.11.2026). media.unesco.org

21. Müller F. M. (ed.). Rig-Veda-Sanhita: The Sacred Hymns of the Brahmans, Together with the Commentary of Sāyanāchārya. – 6 vols. – London: W. H. Allen, 1849–1874. – URL: https://catalogue.nli.ie/Record/vtls000423511. catalogue.nli.ie
22. Nizomiddinov N. G‘. Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi, diniy e’tiqodi, madaniyati: xrestomatiya. – Toshkent: O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi, 2010.
23. Oldenberg H. Die Religion des Veda. – Berlin: W. Hertz, 1894. – URL: https://books.google.com/books?id=8_UZAAAAMAAJ. books.google.com
24. Patton L. L. Bringing the Gods to Mind: Mantra and Ritual in Early Indian Sacrifice. – Berkeley: University of California Press, **2005**. – URL: https://www.ucpress.edu/books/bringing-the-gods-to-mind. University of California Press
25. Renou L. Vocabulaire du rituel védique. – Paris: Klincksieck, 1954. – URL: https://ci.nii.ac.jp/ncid/BA78183015. ci.nii.ac.jp
26. Staal F. The Meaninglessness of Ritual // Numen. – 1979. – Vol. 26, № 1. – P. 2–22. – URL: https://radicalanthropologygroup.org/wp-content/uploads/class_text_098.pdf. radicalanthropologygroup.org
27. Staal F. Agni: The Vedic Ritual of the Fire Altar. – 2 vols. – Berkeley: Asian Humanities Press, 1983. – URL: https://wellcomecollection.org/works/nq79nmeg. Wellcome Collection
28. Staal F. Rules Without Meaning: Ritual, Mantras and the Human Sciences. – New York: Peter Lang, 1989. – URL: https://books.google.com/books?id=APcoAAAAYAAJ. books.google.com
29. Tambiah S. J. A Performative Approach to Ritual // Proceedings of the British Academy. – 1979. – Vol. 65. – P. 113–169. – URL: https://www.thebritishacademy.ac.uk/publishing/proceedings-british-academy/proceedings-volumes-1-111/65/. The British Academy
30. Thompson G. The Brahmodya and Vedic Discourse // Journal of the American Oriental Society. – 1997. – Vol. 117, № 1. – P. 13–37. – DOI: https://doi.org/10.2307/605620. JSTOR
31. Witzel M. Vedas and Upaniṣads // The Blackwell Companion to Hinduism / ed. by G. Flood. – Oxford: Blackwell, 2003. – P. 68–101. – DOI: https://doi.org/10.1002/9780470998694.ch4. onlinelibrary.wiley.com
32. Елизаренкова Т. Я. Язык и стиль ведийских риши. – Москва: Наука, Издательская фирма «Восточная литература», 1993. – URL: https://ci.nii.ac.jp/ncid/BA22909590. ci.nii.ac.jp
33. Огибенин Б. Л. Структура мифологических текстов «Ригведы»: ведийская космогония. – Москва: Наука, 1968. – 112 с. – URL: https://ci.nii.ac.jp/ncid/BA63357939. ci.nii.ac.jp
34. Ригведа. Мандалы I–IV / пер. с ведийского Т. Я. Елизаренковой. – Москва: Наука, 1989. – URL: https://ci.nii.ac.jp/ncid/BA37846621. ci.nii.ac.jp